
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2023 YILNING 1-YARIM YILLIGI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Shahar hokimligiga 2023-yilning 1-yarim yilligi davomida barcha manbaalar orqali jismoniy va yuridik shaxs vakillaridan **315 ta** (446ta) murojatlar shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **127ta** (223ta), Xalq qabulxonasi orqali 79 ta (92 ta), Bosh Prokuratura ishonch telefoni orqali **15 ta** (18ta) va shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **94ta** (113ta) yozma murojaatlar kelib tushgan. (Bu ko'rsatgich 2021 yilning shu davrida 446 tani tashil etib, 131 taga yoki 29,4% kamaygan)

Xususan, mazkur murojaatlarning **188 tasi** (59,7%) ijobiy hal etilgan, **118 ta** (37,5%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan, **9 ta** (2,8%) murojaat o'rganish jarayonida.

Murojaatlar sohalari kesimida tahlil etilganda, Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish **58 ta**, Yo'llarni ta'mirlash **56 ta**, Moddiy yordam ajratish masalasida **48 ta**, Obodonlashtirish masalasida **43 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **31 ta**, Qishloq xo'jaligi sohasida **15 ta**, Uy-joylarni ta'mirlash **10 ta**, Ichimlik suvi masalasida **9 ta**, Tomorqalarni sug'orish masalasida **9 ta**, Raxbarlarning faoliyati masalasida **6 ta**, Ish bilan ta'minlash masalasida **5 ta**, Elektr ta'minoti **4 ta**, Daftarga (*Temir, Ayollar, Yoshlar*) kiritish masalasida **4 ta**, Oilaviy munisabatlar masalasida **1 ta**, Kredit olish masalasida **1 ta**, Qabul masalasida **1 ta**, Haj va Umra masalalarida **1 ta** hamda boshqa sohalarga oid **13 ta** murojaatlar kelib tushganligi aniqlandi.

Eng ko'p murojaatlar shaharning Ziynat **32 ta (10,2%)**, Kokilon **27 ta (8,6%)**, Pakana **24 ta (7,6%)**, Qo'chqorchi **21 ta (6,7%)**, X.Olimjon **21 ta (6,7%)**, Bog'bon **16 ta (5,1%)**, Do'stlik **17 ta (5,4%)**, Polmon **12 ta (3,8%)**, Yoshlik **12 ta (3,8%)**, Arsif **11 ta (3,5%)**, Huvaydo **10 ta (3,2)** mahalla fuqarolar yig'inlariga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga joriy yilning 1-yarim yilligi davomida shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan qabullar jadvaliga asosan shahar hokimi tomonidan jami **16 marotaba** shaxsiy hamda **26 marotaba** ommaviy sayyor qabul o'tkazilib, qabullar davomida jami **391 nafar** fuqarolarning murojaatlari ro'yxatga olingan.

Shundan, **211 nafar** (54%) fuqaroning murojaatlari ijobiy hal etildi, **180 nafar** (36,8%) fuqaroning murojaatlarga amaldagi qonun va qarorlar asosida huquqiy tushuntirishlar berilgan.
2023-07-10 10:43:13